



**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

# **TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI**

**2024-YIL YANVAR-MAY  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Sanoat statistikasi  
bo'limi  
Tel.: 71-202-86-66**

## Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2024- yil yanvar-may)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 45 305,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,8 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,8 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 37 073,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**B** – Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** - Ishlab chiqaradigan sanoat **D** - Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E** - Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* %da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatining – 5,4 %ga, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning – 23,2 %ga o'sganligi ta'sir qildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

### Togʻ-kon sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,8 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 %ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, *(yanvar-may oylarida, %da)*



### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


#### Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, %da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Koʻmir, <i>ming t.</i>	1862,3	1694,1	-168,2
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	145,9	164,8	18,9
Kaolin, <i>ming t.</i>	161,7	133,4	-28,3

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,1 trln. soʻmni yoki oʻtgan yilga nisbatan 105,4 %ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-may oylada, %da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 %ni (2023- yilning yanvar-may oylarida 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,6 % (7,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 50,4 % (50,9 %) va quyi texnologiyalisi – 22,9 % (25,3 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,4 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 137,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 40,8% (2023- yilning yanvar-may-oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,5%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2% (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8%), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,1%


(2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,5%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,9 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,2 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati


2024- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,9 ming tonna o‘simlik yog‘i (o‘tgan yilning mos danriga nisbatan 194,9 %), 1,0 ming tonna suyultirilgan sut (106,7 %) mahsulotining ishlab chiqarilishi o‘sganligi kuzatildi.

#### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da


##### O‘simlik yog‘i (tozalangan)




##### Pishloq va tvorog




##### Yumshoq bug‘doy va spelta uni




##### Pivo



##### Aroq




##### Uzum vinosi



##### Sement



##### Paxta chigiti



##### Kalava ip



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	126,0	100,7	-25,3
Shakar, <i>ming t.</i>	174,5	103,7	-70,9
Paxta tolasi <i>ming t.</i>	25,5	19,1	-6,4
Portlandsement, <i>ming t.</i>	1151,1	1665,0	513,9

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish holati o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayishi ammoniy nitrat (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 89,6%) mahsulotida ko'rsatkichlari qayd etildi.

#### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da


##### Ammoniy sulfat



##### Ammoniy nitrat



##### Etil spirti




## Metallurgiya sanoati

(yanvar-may oylarida)



FHI  
%da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 40,8 %ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 102,5 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 18 496,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.


## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar-may oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,3 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,6 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1 484,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



FHI  
%da






## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-may oylarda)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,4 %ni tashkil etgan, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,4 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 4385,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-may oylarda)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,4 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 127,1 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1102,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (yanvar-may oylarda)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 100,1 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 2 206,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**%da**



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati (yanvar-may oylarda)



**FHI**  
**%da**




2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 %ni, fizik hajm indeksi esa 101,1 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1481,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar-may oylarda)

2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,4 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1815,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-may oylarda)



2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 136,6 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1107,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


**Avtotransport vositalari, treylerlar  
va yarim tirkamalar ishlab chiqarish**  
(yanvar-may oylarda)



2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 137,3 %ni, ishlab chiqarish hajmi 2877,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish**  
(yanvar-may oylarda)

2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 132,5 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 855,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-may oylarda



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,3 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (13,9 %)ni) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-may oylada, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 23,2 %ga oshganligi kuzatildi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** (yanvar-may oylada, %da)




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	49640,7	8443,3	-41197,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1448,8	1524,8	76,0
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m.	39628,0	49237,0	9609,0

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar-may oylarda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-may oylarda, %da)



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	22,5	27,1	4,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar, mlrd.so'm	49,6	72,1	22,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarida 145,5 %ni tashkil etdi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2024- yilning yanvar-may oylarda*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 8,6 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 20,0 %ni tashkil etdi.

### Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2024- yilning yanvar-may oylarda*


	Mlrd. soʻm		Ulushi %da		%da		
	45 305,4		100,0		106,8		
<b>Toshkent viloyati</b>							
	Mlrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	1366,2	3,0	108,6		150,1	0,3	97,3
<b>Nurafshon</b>				<b>Boʻka</b>			
	Mlrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	15467,9	34,1	102,7		1482,9	3,3	108,8
<b>Olmaliq</b>				<b>Zangiota</b>			
	Mlrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	2247,4	5,0	103,5		4318,4	9,5	112,8
<b>Angren</b>				<b>Qibray</b>			
	Mlrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	3464,1	7,6	98,5		554,1	1,2	105,8
<b>Bekobod</b>				<b>Quy Chirchiq</b>			
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	1713,0	3,8	98,6		377,0	0,8	109,2
<b>Ohangaron</b>				<b>Parkent</b>			
	Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da		Mlrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	4485,7	9,9	104,5		294,2	0,6	108,1
<b>Chirchiq</b>				<b>Piskent</b>			

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>
	337,3	0,7	100,4		529,1	1,2	87,8
<b>Yangiyo'l</b>				<b>O'rta Chirchiq</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>
	349,8	0,8	102,8		368,1	0,8	98,7
<b>Oqqo'rg'on</b>				<b>Chinoz</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>
	3434,6	7,6	102,2		1147,5	2,5	108,5
<b>Ohangaron</b>				<b>Yuqori Chirchiq</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>
	173,4	0,4	107,2		1075,6	2,4	109,3
<b>Bekobod</b>				<b>Toshkent</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %da</i>	<i>%da</i>
	1037,5	2,3	101,3		931,6	2,1	110,2
<b>Bo'stonliq</b>				<b>Yangiyo'l</b>			

### Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, %da

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Nurafshon (2023- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 108,6 %), Chirchiq (104,5 %) shaharlari hamda Qibray (112,8 %) tumanida sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga bir nechta tuman va shaharlarda ya'ni O'rta chirchiq (87,8 %), Chinoz (98,7 %), Bo'ka (97,3 %) tumanlari va Ohangaron (98,6 %), Bekobod (98,5 %), Yangiyo'l (100,4 %) shaharlarida past ko'rsatkichni tashkil qildi.






■ 2023- у. IFO

### Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,1 %) hamda Bekobod (7,6 %), Chirchiq (9,9 %), Angren (5,0 %) va Ohangaron (3,8 %) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Bo'ka (0,3 %) hamda Bekobod (0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (105333,8 ming so'm), Ohangaron (41354,2 ming so'm) va Bekobod (33120,1 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (14811,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-may oylarda, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari	% da
	14811,1	104,7
<b>Toshkent viloyati</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	24255,7	104,8
<b>Nurafshon</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	1114,2	95,9
<b>Bo'ka</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	105333,8	99,6
<b>Olmaliq</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	8636,4	106,2
<b>Zangiota</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	12290,1	101,4
<b>Angren</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da
	41354,2	97,1
<b>Ohangaron</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da
	33120,1	96,3
<b>Bekobod</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da
	25892,7	101,6
<b>Chirchiq</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	24569,7	111,2
<b>Qibray</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da
	4771,0	104,2
<b>Quyi Chirchiq</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da
	2109,6	107,2
<b>Parkent</b>		
	Sanoat mahsulotlari	% da
	2892,2	108,3
<b>Piskent</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	3936,4	96,4
<b>Yangiyo'l</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	3849,0	86,3
<b>O'rta Chirchiq</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	3113,7	101,1
<b>Oqqo'rg'on</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	2524,3	96,8
<b>Chinoz</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	30813,4	100,4
<b>Ohangaron</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	8225,2	107,0
<b>Yuqori Chirchiq</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	1044,8	105,6
<b>Bekobod</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	5400,5	106,1
<b>Toshkent</b>		


	Sanoat mahsulotlari	% da
	4646,5	108,5
<b>Yangiyo'l</b>		

	Sanoat mahsulotlari	% da
	5864,0	100,5
<b>Bo'stonliq</b>		

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9200,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,3 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Zangiota (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (94,0 %), Yuqori Chirchiq (67,7 %), Toshkent (72,4 %) tumanlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Olmaliq (1,8 %) va Bekobod (2,3 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Toshkent viloyatida yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2024- yil yanvar-may oylarda)

Bugungi kunda viloyatda 6492 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 941 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 14,5 %) Zangiota tumaniga, 576 tasi (8,9 %) Qibray tumaniga, 568 tasi (8,7%) Toshkent tumaniga, 418 tasi (6,4 %) Chirchiq shahriga, 328 tasi (5,1 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda.



2024- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 604 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 78 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 12,9 %) Zangiota tumaniga, 36 tasi (6,0 %) Qibray tumaniga, 43 tasi (7,1 %) Toshkent tumaniga, 22 tasi (3,6 %) Chirchiq shahriga, 26 tasi (4,3 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda.